

Boshqaruv raisi maslahatchisi "Ma'naviyat fidoiysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

// 09.09.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/boshqaruv-raisi-maslahatchisi-ma-naviyat-fidoiysi-ko-krak-ni>



"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova "Ma'naviyat fidoiysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Sanobar Abduraxmanovaning Jamiyatimiz va tizim korxonalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgani, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish borasida fidokorona mehnat qilgani va samarali natijalarga erishgani, shuningdek, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ibratli faoliyati hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan munosib e'tirof etildi.



"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi Sanobar Abduraxmanovani ushbu yuksak e'tirof bilan qutlaydi hamda kelgusi ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaydi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati